

## HAYVONLAR BILAN BOG'LIQ RAMZLAR TALQINI

**Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hayvonlar bilan bog'liq bo'lgan ramzlar talqini o'zbek va jahon xalqlari misolida tahlil qilingan. Hayvonlarning ramziy ma'nolari, ular orqali xalqlarning dunyoqarashi, tasavvuri, madaniyatining ifodalanishi atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ot, bo'ri, kiyik, tulki, ilon, mol, it, quyon.

Umuman inson olamni qiyos orqali anglab borishini hisobga olsak, qiyos etaloni vazifasini, birinchi navbatda, obyektiv olam unsurlari bajarishi shubhasiz. Aynan shuning uchun, aytaylik, yaponlarda meduza, o'zbeklarda gul go'zallik va dilbarlik ramzidir<sup>1</sup>.

Ot azaldan insonlarga astoydil xizmat qilib kelgan hayvon hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, otlar miloddan taxminan uch ming yil avval xonakilashtirilgan. Uni mashq qildirish, turli xil ishlarga, harakatlarga o'rgatish boshqa hayvonlarga nisbatan juda oson.

U odamning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jang-u jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko'pincha kishini o'lim-yitimdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir<sup>2</sup>. Otning yuqoridagi jihatlari o'zbek xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Aravani ot tortar, ko'lankasin it<sup>3</sup> maqolida ot so'zi ot so'zi mehnatni qiladigan, lekin qilgan ishini boshqalarga bildirmaydigan, maqtanmaydigan insonlarni, it so'zi esa aslida ish qilmasa ham o'zini ko'p ish qilganday qilib ko'rsatadigan maqtanchoqlarni ramziy ma'noda bildirib kelgan.

Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri hisoblanib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g'alaba qozonishga yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko'p holatlarda ot ramzini ifodalaydi va o'zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan ishonchlar saqlanib qolgan. Farg'onada, Qo'qonda hamda Samarqandda devni ot qiyofasida tasavvur qilishadi. O'zbek xalq ertaklari va dostonlarida ot qahramonning sadoqatli yo'ldoshi va hamrohi, sifatida uchraydi. Alpomishni Boychibor, Go'ro'g'lini G'irotsiz umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbek madaniyatida yangi uyga ko'chib kirishda hovli darvozasiga otning taqasi qoqliladi. Bu bilan xonardon turmushi ot taqasiday mustahkam, mol-holga boy-badavlat bo'lishi niyat qilinadi. Uy hayvoni bo'lgan ot o'zbek millati uchun salomatlik ramzi bo'lib ham xizmat qiladi. Bemor odamdan ahvolini so'rashganda agar u sog'lig'i yaxshilanayatgan bo'lsa, u ko'pincha holatin "otdayman" so'zi orqali ifodalaydi. Buni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz ham mumkin. Hali otdaysiz, rais bova, otday (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi)! Ko'rib turibsan-ku, otdayman! – Sherzod qo'llarini yozdi (O'.Hoshimov. Nur borki, soya bor). Menga nima qilardi, qizim. Otdekman. Faqat har doimgidek yolg'izman (O'.Umarbekov. Odam bo'lish qiyin).

Bo'ri turkiylarda totemlarning biri bo'lib, u botirlik va bo'ysunmaslikni ifoda qiladi. Afsona va rivoyatlardada turk urug'larining asosini bo'riga borib taqash ularda bo'riga bo'lgan ishonchning saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bo'riga ishonchning asosiyo qismi o'zbeklarning turli guruhlarida bolaning tug'ilishi, uning hayotini saqlab qolish bilan bog'langan. Rus lingvomadaniyatida bo'ri – vahshiylilik; kelt mifologiyasida bo'ri – quyoshni yutib yuboruvchi; Xitoyda yebto'ymaslik, ochko'zlik; nasroniylikda yovuzlik, vahshiylikni aks ettiradi.

Bo'ri - zo'ravonlik, hiyla-nayrang, ochko'zlik, qat'yatilik, yovuzlik, lekin hamohanglik, g'alaba, oziq-ovqat uchun g'amxo'rlik ramzi. O'rta asrlarda Yevropa hududlarida yashaydigan charvachilik jamoalarida, ayniqsa, yahudiy va nasroniy xalqlari folklorida (tabiatning yirtqich yaratilishi kabi hikoyalarda) bo'ri sehr bilan

<sup>1</sup> Mahmudov N., Xudoyberanova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013, 19-24-betlar.

<sup>2</sup> Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent, 2001, 263-bet.

<sup>3</sup> Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 19-bet.

ifodalanadi. Katta, dahshatli bo‘ri ochko‘zlik ramzi edi. Boshqa hududlarda bo‘ri ramziy ma’nosи o‘zgardi, jangchilarning tajribasi orqali bilimning g‘alabali ramziga aylandi.

Bug‘u // kiyik – ertak, afsona va misflarda Sharq, kun chiqishi, yorug‘lik, poklik, yangilanish va yaratilish bilan aloqador qilinadi. Shoxdor bug‘u ko‘pchilik xalqlar madaniyatida to‘kin-sochinlik, Hayot daraxti, quyosh nurlari va uzoq umrni ifodalaydi. Kiyik o‘zining nozik harakatlari, go‘zalligi, chaqqonligi, chopqirligi, sezgirligi va hurkakligi bilan boshqa hayvonlardan ajralib turadi. Shu bois, kiyik ko‘pincha she’riyat va musiqa bilan bog‘lanadi.

Kiyik turkiy xalqlarning muqaddas, totem jonivorlaridan biridir. U insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, baxtga eltuvchi ilohiy mavjudotdir<sup>4</sup>.

Chingiz Aytmatovning “Oq kema” kemasida ham ramziy obrazlar anchagina. Shohdor ona bug‘u hech qachon yo‘qotib bo‘lmaydigan ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat timsoli hisoblanadi. Ona bug‘u qirg‘iz xalqining oxirgi qiz va yigitini o‘limdan qutqarib qoladi va ularni voyaga yetkazadi. Cho‘tir Baymoq kampir bu bolalar katta bo‘lishsa, uning farzandlarini o‘ldirishini, inson zoti hayvonlargagina emas, o‘zlariga ham rahm qilishmasliklarini aytsa ham baribir bolalarni olib ketishga qaror qiladi. Chunki u bolalarni asrab, katta qilsa, ular keyinchalik bug‘ularni ovlamasliklariga, ahil-inoq yashashlariga ishongandi. Lekin u kutganday bo‘lib chiqmaydi.

Uzoq Sharq madaniyatida ushbu hayvon ma’noga boy timsollardan hisoblanadi. Masalan, qadimgi Koreyadagi Puyeo davlati “kiyik” ma’nosini bildirgan. Koreyaning tarixiy hamda adabiy manbalarida kiyik aziz hayvon sifatida ko‘rinadi.

Tulki ko‘pgina madaniyatlarda ayyorlik, aldoqchilik, yolg‘onchilik timsoli sifatida talqin qilinadi. Xitoyda uzoq umrning timsoli hisoblanadi. Shuningdek, xitoy mifologiyasida tulkingin qizga aylanib qolishi keng tarqalgan.

Xitoyliklarning qadimiy inonchlariga ko‘ra, tulki ellik yoshida ayolga, yuz yoshida yosh qizga aylanadi. Ming yil yashagan tulkida to‘qqizta dum paydo bo‘ladi va u Samoviy Tulki (tyen-xu)ga aylanadi. Samoviy Tulki nafaqat ayol qiyofasiga, balki erkak qiyofasiga ham kira oladi<sup>5</sup>.

Ba’zi Xitoy manbalarida tulki salbiy obraz sifatida, ba’zi manbalarida esa ijobjiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Yaponiyada oq tulki to‘kin-sochinlikni anglatadi. Yapon shintoizmida xalq tomonidan sevilgan ma’buddir. Binobarin, Yaponiyagi ibodatxonalar darvozasiga guruch omborining kalitini tishlab turgan tulki tasviri o‘rnatib qo‘yiladi. Tulki - Yevropa urf-odatlarida sharmandalik, ikkiyuzlamachilik, yomonlik bilan to‘ldiriladigan ramz. Yirtqich hayvon sifatida tuzoqqa tushishi qiyin, tulki nasroniylikda hiyla-nayranglarga o‘xshardi. Shimoliy Amerikada u - yolg‘onning neytral tasviri.

U o‘zbek xalqi uchun ayyorlik, yolg‘onchilik, ustomonlik, ikkiyuzlamachilik ramzi bo‘lib keladi. Agar bo‘lsami, o‘tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan, mug‘ombirligiga, qari tulkiligiga hamma tan bergen, so‘ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponianing saqichidek hech kimga bermay chaynab lazzatlangan bo‘lardilar (U.Hamdam. Muvozanat).

Ilon ham murakkab, universal timsollardan biri hisoblanadi. Turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan mifologik qarashlarga ko‘ra, uzoq vaqt yashagan ilon ma’lum vaqtidan keyin ajdarhoga aylanadi.

Yaponiyada ilon momaqaldoiroq ma’budi sanaladi. Yunon an’analarida ilon donishmandlik, hayotning yangilanishi, qayta tirilish ramzi bo‘lib, Eskulap, Gippokrat va Germesning o‘ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Buddizmda yovuzlik; nasroniylikda shayton; yahudiy an’analarida yovuzlik, gunoh, shahvat ramzini bildiradi<sup>6</sup>. Gretsiyada ilon aqllilik, donolik, qayta tirilish; Amerika hindulari madaniyatida chaqmoq, yomg‘ir tashuvchisi; kelt eposida shifobaxsh suv, buloqning timsoli sifatida tushuniladi.

Ilon zaharli bo‘lgani uchun o‘zbek xalqi o‘rtasida yomon gapiradigan, bema’ni so‘zlarni ko‘p ishlataligan, insonga yordam bermaydigan yomon odamlarni umumiylar ma’noda anglatib keladi. Buni Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi quyidagi misol orqali ham ko‘rishimiz mumkin: “Begim, siz Tanbalning yog‘iyligi uchun xijolat chekmang. “Ilon baribir ilonligini qilur edi”<sup>7</sup>. Xonzodabeginning tushkun kayfiyatini

<sup>4</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019, 150-bet.

<sup>5</sup> Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: TDSHI, 2015, 144-bet.

<sup>6</sup> Usmanova Shoira. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019, 153-bet.

<sup>7</sup> Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1999, 134-bet.sigir

ko'rgan Bobur uni xijolatdan qutqarish uchun Ahmad Tanbalning xarakter-xususiyatidan kelib chiqib, uni "ilon" deya ataydi.

Sigir // mol – ona sutining qadimiy ramzi. Qadimgi Misrda va boshqa ko'plab madaniyatlarda ona yerni bildirgan. Misrlik ma'buda Nohut ba'zan yulduz bilan sigir shaklida tasvirlangan (qorni va to'rtta oyog'i bor). Quvonch va muhabbat ko'pincha sigir shaklida tasvirlangan. Kuchning (yer va osmon) himoya ramzi sifatida tun davomida quyoshga g'amxo'rlik qiladigan ona. Shimoliy Yevropa mifologiyasida yer yuzidagi barcha jonzotlarning birinchi hamshirasi sifatida ko'rildi. Ibtidoi gigantlarning hamshirasi Adumla muzni yalab, undan birinchi odamni ozod qilgan, boshqa variantdagi afsonada u inson yaratuvchisidir.

Qora sigir Hindistonning dafn marosimlarida ishtirok etadi, oq sigir esa ma'rifikatning ramzi hisoblanadi. Hinduizm va buddizm an'analarida sigirning xotirjam, muvozanatli tabiat bilan eng hurmatli va muqaddas hayvonga aylandi. Uning harakatlari baxt va xotirjamlit namunasini ko'rsatadi<sup>8</sup>.

Ushbu hayvon o'zbek tilida qo'lidan ish kelmaydigan, befarosat, ko'p narsaga aqli yetmaydigan insonni bildirib keladi. Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi quyidagi misollarda buni ko'rishimiz mumkin: "Sen mol emassan. U yoqdan burningni oqizib kelmagansan. Tishingni qayrab yuribsan"<sup>9</sup> yoki "U olmaydigan eshshak bo'lsa, sen pul berishni eplolmaydigan molsan! Pul olmaydigan odam yo'q bu dunyoda, pul berolmaydigan lapashanglar bor"<sup>10</sup>.

It – xristian an'analarida bag'ishlanish, himoya qilish, hushyorlik kabi ramziy ma'noga ega. Qadimgi g'oyalarda u keyingi hayot bilan bog'liq edi. Uning qo'riqchisi va o'liklarning ruhini olib boradigan yo'lboshchi sifatida ko'rildi. Qadimgi yunon afsonalarida jahannamga dahshatli uch boshli it kirgan. Ular, shuningdek, qabrular va chorrahalarga tez-tez tashrif buyurgan o'lim ma'budasi Hecata bilan birga edi. Skandinaviyada tajovuz bilan bog'liq edi. Itlar har kuni va har joyda inson bilan birga bo'lishlari, ruhlarning dunyosini bilishlari keying hayotda eng yaxshi yo'lboshchilar deb hisoblanganligiga sabab bo'ldi.

Uy hayvoni bo'lgan it o'zbeklar uchun ijobiy va bir vaqtning o'zida salbiy konnotatsiyalarga ega hisoblanadi. Ijobiy ramz sifatida u insonga butun umr vafo hamda sadoqat bilan xizmat qiladigan, har qanday vaziyatda ham uni tashlab ketmaydigan hayvon hisoblanadi. Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasida aynan shu haqida yozilgan. Ushbu hikoyaga epigraflardan biri sifatida quyidagi gaplar olingan. Hadisi sharifdan : "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu Ashobi kahfning vafodor itidir". (Al-jome al kabir) Qorako'zni Saodat aya shunchalik yaxshi ko'radiki, qizi Qumri uni urishganda: "Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman", - deb aytadi. U kasal bo'lib qolganda bit oy deraza tagida "ko'kragini qorga berib" yotgan. Qorako'z Saodat aya vafot etgach har kuni uni qidirib, bolalarinikiga borib keladi. Umrining oxirigacha kampirni qidiradi.

Salbiy ramz sifatida esa pastkashlik, ablalilik, urushqoqlik, xor-zorlikni bildirib keladi. Qani u itdan tarqagan?.. — Yusuf ovozi boricha baqirdi va shu zahoti ko'zlaridan potrab yosh chiqdi, — aldashni nima ekanligini ko'rsataman xaromxo'rga!..(U.Hamdam. Muvozanat). . T-fu! Itdan bo'lgan qurbanlikka yaramaslar! — dedi (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi). Mana, idealsizlik oqibati — sovet xalqi bir-birini itday talab boshladi (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi). Bilardim itday o'lib ketishingni, itdan farqing yo'q edi! O'ldir, meni ham o'ldir, qotil! — parixta, sho'rida Ko'k Tursun o'zini Bo'stonga otdi.

"Yulduzli tunlar" romanida Shayboniyxon Amudaryodan narida imillab yurgan, qiyin vaziyatda yordamga kelmayotgan o'ttiz ming lashkarni it deya ataydi: "Hozir butun davlatimiz, butun sulolamiz xavf ostida-ya, nahotki shuni fahmlamasanglar? Hayot-mamoting hal bo'ladigan paytda, yo shoh meni yo'q qiladigan, yoki men shohni nest-nobud qiladigan asnoda shunday arazlab yurishlaring itlik emasmi? Sen itlar hali ko'rasenlar, shu qamaldan eson-omon qutulsak, hammangni tavbangga tayantirgaymen!"<sup>11</sup>.

Quyon – ko'pincha oy bilan bog'liq edi; istak, qobiliyat, tezlik, hushyorlik va sehrli kuchning ramzi. Ular ko'plab an'analarida yolg'onnini aks ettiradi. Masalan, afrika ertaklarining birida quyon filni aldashga majbur qiladi. Amerikalik hind qabilalari quyonni dindor, qahramon sifatida ko'rib, uni oy va insonga xizmat qilgan tabiiy kuchlarning mohirona yaratuvchisi deb hisoblashgan. Quyonlar ko'pincha sehr-jodu, bepushtlik bilan bog'liq bo'lib, qiyngalgan odamlar uchun yordamchi sifatida qaraldi.

<sup>8</sup> [www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Culture/JekTresidder/index.php](http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Culture/JekTresidder/index.php)

<sup>9</sup> Tohir Malik.Shaytanat (1-kitob).20-bet.

<sup>10</sup> Tohir Malik.Shaytanat (1-kitob).38-bet.

<sup>11</sup> Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1999, 208-bet.

Quyon o‘zbeklarda qo‘rroqlik, ko‘zdan yo‘qolish, aldoqchilik ramzi sifatida ishlariladi. Tushunsang-chi, qahramonlikning vaqtimas. Quyon bo‘lish kerak! — deb bo‘g‘ildi Mirazim (U.Hamdam. Muvozanat).

Hayvonlar bilan bog‘liq ramzlardan quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

hayvonlar turli xalqlarda turli ramziy ma’nolarni anglatadi;

ot hamda bo‘ri turkiylar uchun totem hayvonlardan biri hiosblanib, baxt va boylik, quyosh, jasorat, mehr; botirlik, bo‘ysunmaslik, zo‘ravonlik, hiyla ramzi hisoblanadi;

sigir (mol) va it o‘zbeklar uchun salbiy konnotatsiyaga ega, shuning uchun ko‘pincha ijobiy ma’noda kelmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
2. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1999.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent, 2001.
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
5. Tohir Malik.Shaytanat (1-kitob).
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
7. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: TDSHI.
8. [www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Culture/JekTresidder/index.php](http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Culture/JekTresidder/index.php)